



**ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY,
AXLOQIY MUAMMOLARNING AKS ETTISHI**

Jo‘rayeva Nargiza

Telmiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandasini Abdulla Qodiriyning asarlarida ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy muammolarning qanday ifoda topgani tahlil etiladi. Xususan, yozuvchining “O’tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” kabi romanlarida o‘z davrining ijtimoiy ziddiyatlari, ma’naviy inqirozlar, urf-odatlar va eskilik qoldiqlari bilan bog‘liq muammolar yoritilgan. Qodiriyning badiiy tasvir uslubi, obrazlar orqali berilgan tanqidiy qarashlari, ayollar taqdiri, jamiyatdagiadolatsizliklar va insoniy fazilatlar qadri ushbu maqolada o‘rganiladi. Shuningdek, adib asarlarida axloqiy tarbiya, mehr-oqibat, fidoyilik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari qanday ifodalanganiga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, ijtimoiy muammolar, axloqiy tarbiya, “O’tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, ma’naviyat, adabiyot, badiiy obraz, tarixiy roman, ijtimoiy tanqid.

O‘zbek adabiyoti — milliy ruhda yozilgan, ayniqsa o‘zbek romanlarini qamrab olgan boy ijodiy meros hisoblanadi. O‘zbek romanchiligi o‘zida eng yaxshi adabiy an’analarni mujassam etgan bo‘lib, zamon bilan hamnafas tarzda takomillashib bormoqda. Ulug‘ adib Abdulla Qodiriyning ikki mashhur romanini qiyosiy tahlil qilish orqali ham o‘zbek romanchiligiga xos o‘ziga xosliklar yaqqol namoyon bo‘ladi. Ishonch bilan aytish mumkinki, “Mehrobdan chayon” asari “O’tkan kunlar” romanining tarixiy va mantiqiy jihatdan davomi sifatida ko‘riladi. Bu asarda xonlik davri hayoti, urf-odatlar, ijtimoiy-madaniy muhit tasvirlanadi.



Badiiy adabiyotda o‘z davrining madaniy va adabiy-estetik qarashlari, g‘oyaviy-siyosiy holati kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Aynan mana shu omillar “Mehrobdan chayon” romanining badiiy va g‘oyaviy tuzilishida, ayniqsa sinfiy yondashuvda seziladi. Muallif ma’lum darajada o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy qarashlariga yaqin tursa-da, bu tasvirlar sun’iy emas, balki tarixiy voqelik sifatida berilgan. Shu bilan birga, asarda umuminsoniy qadriyatlar va tarbiyaviy mezonlar asosiy o‘rinni egallaydi. Jamiyatdagi sinfiy tabaqalanishga bunday yondashuv dunyo adabiyotining mashhur vakillari — Balzak, Zola, Tolstoy va Dostoyevskiy romanlarida ham kuzatiladi.

“O‘tkan kunlar”dan keyin yozilgan “Mehrobdan chayon” asari o‘zbek roman matabining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu roman orqali o‘zbek xalqiga xos badiiy ifoda vositalari shakllandi. Abdulla Qodiriy ijobiy va salbiy obrazlar yaratishda Sharq adabiy merosidan foydalangan holda, ulardan ilhomlanib, o‘z asarlarining epik qahramonlarini yuksak mahorat bilan tasvirlagan. Uning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari qahramonlarini (Anvar, Ra’no, Otabek, Kumush) solishtirganda ularning tashqi va ichki xususiyatlari o‘zaro juda o‘xshash ekanini ko‘rish mumkin. Ular har jihatdan yetuk, komil inson sifatida tasvirlangan. Yozuvchi erkak qahramonlarni ifodalashda “salobatli”, “mag‘rur”, “qora ko‘zli”, “barvasta” kabi ifodalar orqali ularning jismoniy va ruhiy qiyofasini mujassamlashtirgan.

O‘zbek adabiyotining ravnaqiga beqiyos hissa qo‘sghan Abdulla Qodiriy nafaqat roman janrining asoschisi, balki ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy muammolarni chuqur tahlil qilgan atoqli yozuvchilardan biridir. Uning asarlari orqali o‘zbek xalqining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayoti, axloqiy inqirozlar va ma’naviy qarashlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Qodiriy ijodi jamiyatdagiadolatsizlik, ayollar huquqsizligi, eskicha dunyoqarash va axloqiy inqirozlar muammolarini ko‘taradi va o‘quvchini fikrlashga undaydi.



Abdulla Qodiriyning publitsistik faoliyatidagi ilk qadami 1914-yil 1-aprelda “Sadoyi Turkiston” gazetasida chop etilgan “Yangi masjid va maktab” nomli maqolasi bilan boshlanadi. Tez orada u “To‘y”, “Ahvolimiz”, “Fikr aylag‘il” kabi jamiyat muammolarini yoritgan mazmundor she’rlar yozadi. Qodiriyning she’riyatini ikki yo‘nalishga bo‘lish mumkin: birinchisiga — “To‘y”, “Ahvolimiz”, “Millatimga bir qaror”, “Fikr aylag‘il”, “Pildir-pis...” kabi mustaqil she’riy asarlar kiradi; ikkinchisi esa — “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Obid ketmon” kabi nasriy asarlari ichidagi she’riy parchalar hisoblanadi.

Qodiriyning “To‘y” she’ri hajviy uslubda yozilgan bo‘lsa-da, unda muhim va dolzarb ijtimoiy masala ko‘tarilgan. Azaldan odamlar orasida quvonch va diyordi sababi bo‘lgan, qarindosh-urug‘, mahalla-ko‘yni birlashtirgan to‘y marosimlari, o‘z holicha davom etaversa, nihoyat xalqqa zarar yetkazishi, ularni baxtdan emas, baxtsizlikka olib borishi tasvirlanadi. She’rda adolatsiz mustamlaka tuzumi ta’sirida ezilgan, ilmsizlik, loqaydlik va xurofot girdobiga tushgan xalq tanqid qilinadi. Muallif “kori ma’jus” va “kori shayton” kabi obrazlar orqali bu illatlarga qarshi chiqadi. U to‘ylarning ortidan mulk emas, jon yo‘qolishi mumkinligidan ogohlantiradi. Bu mavzu, shaxs va jamiyat muammosi sifatida, keyinchalik uning “Baxtsiz kuyov” nomli dramasida keng yoritiladi.

“O‘tkan kunlar” romanida asosiy diqqat markazida — ishqiy voqealar bilan bir qatorda o‘sha davrning ijtimoiy ziddiyatlari, urf-odatlarning inson taqdiriga ko‘rsatgan salbiy ta’siri, ayollar huquqsizligi, nodonlik va jaholat mavjud. Asarda Otabek va Kumush obrazlari orqali yuksak axloq, fidoyilik va mehr-oqibat timsollari yaratilgan bo‘lsa, Zaynab, Yusufbek hoji, Mullajon kabi obrazlar orqali jamiyatdagi muammolar, xusumat, hasad, ikkiyuzlamachilik kabi illatlar fosh etilgan.

Qodiriylas arada turmushga majburlab berish, diniy aqidaparastlik va ayollarning erksizlik holatlarini tanqid qiladi. Ayniqsa, Kumushning fojiali taqdiri orqali ayollarning jamiyatdagagi og‘ir ahvoli ochib beriladi.



Bundan tashqari, “O‘tgan kunlar” romanida Otabek obrazi orqali xalq qalbida yashiringan umidlar va dardlar yurakni larzaga soladigan tarzda ifodalananadi. Otabekga, shuningdek qutidor va boshqa shaxslar haqida tarqatilgan tuhmatlar, ularning fitna domiga tortilishi va aybsiz bo‘lsa-da, aybdor sifatida jazolanishi — hatto o‘limga mahkum etilishi — o‘sha davr jamiyatidagi savodsizlik, lavozimparastlik hamdaadolatsizlik va zo‘ravonlik hukmronligining natijasi sifatida tasvirlanadi. Abdulla Qodiriy bu asari orqali aynan shu chirigan ijtimoiy tuzumni fosh etish, uni ildizi bilan yo‘q qilishni maqsad qilgan.

Asarda O‘zbekoyim obrazi ham muhim o‘rin tutadi. Uning kibrli, o‘zini yuqori tutadigan, boylik va shon-shuhratga berilgan ayol sifatida tasvirlanishi natijasida, u o‘z farzandining baxtiga to‘siq bo‘lib, nafaqat Otabekning, balki butun oilasining tinchini buzadi. Bu orqali yozuvchi o‘zbek ayollarining o‘sha davrdagi ma’naviy va ilmiy saviyasining pastligi, diniy va dunyoviy bilimlardan uzoqligi kabi muammolarga ishora qiladi.¹

Yozuvchining ikkinchi mashhur romani — “Mehrobdan chayon”da esa diniy niqob ortiga yashiringan johil, ma’naviy tuban ruhoniylar tanqid ostiga olinadi. Asardagi bosh qahramon — Saidahmadning ichki kechinmalari, unga tahdid solayotgan soxta dindorlar, jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik va axloqiy tubanlik asarning bosh mavzularidan hisoblanadi.

Qodiriy bu roman orqali islom dinining asl mohiyatini buzib, o‘z manfaati yo‘lida diniy aqidalarni suiiste’mol qilayotgan kimsalarni ochiq tanqid qiladi. Bu orqali u xalqni ma’rifatga, bilimga, haqiqatga yuz tutishga chorlaydi.

Qodiriy asarlaridagi ijobiy obrazlar orqali yosh avlodga axloqiy tarbiya berish, halollik, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni targ‘ib etish kuchli ifodalangan. Otabek obrazi — adolatparvarlik, bilimdonlik, jasorat timsoli sifatida

¹ Qodiriy A. O‘tgan kunlar. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.



tasvirlanadi. Shuningdek, yozuvchi ayollar qadr-qimmatini yuksaltirishga, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratadi.

Shuni ham aytish joizki, adib o‘z kasbi haqida shunday degan edi: “Yozuvchilikda muhim bir qoida bor — avvalo, fikr bo‘lishi kerak, undan keyin o‘sha fikrni ifoda etadigan so‘zlarni tanlash, bu so‘zlar oddiy emas, balki go‘zal, mahorat bilan aytilgan, aynan o‘sha g‘oyani ifodalash uchun yaratilgandek tabiiy bo‘lishi kerak. Ana shunda, boshqa masalalarni ko‘rib chiqishga asos bo‘ladi”. Abdulla Qodiriy 1930-yillarning murakkab ijtimoiy sharoitida ham ijodini to‘xtatmadidi. 1934 yilda u qishloq hayotini tasvirlovchi “Obid ketmon” qissasini yozdi. Undagi Obid obrazi o‘zbek adabiyotida noyob siymo sifatida ajralib turadi. Obid orqali yozuvchi o‘zbek xalqining mehnatga, dehqonchilikka oid madaniyatdagi yuksak darajasini aks ettiradi. Qodiriy bu obrazni yaratishda faqat “sinfiylik” tamoyiliga tayanmay, balki umuminsoniy qadriyatlarni yuksak qo‘ygan. Asarda u qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish jarayonining ijobiy va salbiy tomonlarini haqqoniy tasvirlaydi, ichki ziddiyatlarni ochib beradi. Kolxzot tizimining oxir-oqibat insondagi tashabbuskorlik, shaxsiy manfaatdorlik kabi tuyg‘ularni susaytirishini ta’kidlaydi. Bu qissa o‘zbek adabiyotida ilk “ishlab chiqarish” qissasi sifatida baholanadi, Obid esa birinchi ishbilarmon qahramon sifatida ko‘riladi. Qodiriy bu asarda iqtisod va xo‘jalik masalalarini chuqrushunadigan ijodkor va tadqiqotchi sifatida namoyon bo‘ladi; bosh qahramonning xarakteri va ichki dunyosi aynan mehnat jarayonida ochiladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy asarlari o‘z davrining real ijtimoiyma’naviy holatini yoritibgina qolmay, bugungi kun o‘quvchisi uchun ham muhim saboqlar beradi. U o‘z asarlari orqali axloqiy inqirozga qarshi kurashgan, jamiyatning ma’naviy uyg‘onishi uchun kurashgan ijodkordir. Yozuvchining asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, yosh avlod tarbiyasida muhim manba sifatida xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quvvatova D. Jahon va o‘zbek she’rlari: qiyos va tahlil. //International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. p-ISSN: 2308-4944 (chop etish) eISSN: 2409-0085 (onlayn). Yil: 2020 84. Nashr qilingan: 30.04.2020.
2. Yuldasheva D. M. Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. Solid State Teshnology. Volume: 63 Issue: 6 Publisation Year: 2020. 14221-142253.
3. Yuldasheva D. M. Anthropocentrism Approach To Children’S Speech Study. Session 2: Linguistics Theory, Applied Linguistics. Selection Of Materials Of The International Online Conference. www.Researsh-Support-Senter. Som 2020.92-954.
4. Qodiriy A. O’tkan kunlar. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.
5. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2019.
6. G‘aniyeva N. Abdulla Qodiriy: hayoti va ijodi. -Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
7. Yusupova Z. O‘zbek romanichiligi taraqqiyoti va Abdulla Qodiriy ijodi. - Toshkent: Fan nashriyoti, 2001.